


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

**FILOLOGIYA**

<b>1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
<b>2. Murodov G‘ayrat Nekovich</b> EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
<b>3. Чупонов Отаназар Отажонович</b> РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
<b>4. Худайбергенова Умида Комилджановна</b> СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
<b>5. Pardayeva Sojida Ahmatovna</b> WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
<b>6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна</b> МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
<b>7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna</b> SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
<b>8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna</b> INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
<b>9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна</b> СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
<b>10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
<b>11. Абдиева Камола Аслидин кизи</b> ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

**IQTISODIYOT**

<b>1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich</b> SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
<b>2. Кипкеева Асият Магомедовна</b> ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
<b>3. Annazarova Barno Rustamovna</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

## PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**  
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**  
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI  
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**  
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишников Дина Рафаиловна**  
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ  
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ  
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**  
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY  
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**  
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ  
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО  
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**  
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI  
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**  
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**  
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK  
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**  
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI  
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**  
GENDER IJTIMOIYLASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING  
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

## TIBBIYOT

- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**  
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS  
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**  
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ  
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

## TARIX

- 1. Mustafa Demirci**  
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL  
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED  
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**  
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И  
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**  
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY  
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**  
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI  
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**  
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI  
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**  
АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ  
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**  
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID  
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**  
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY  
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**  
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”  
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ  
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249



**Ashirov Adhamjon Azimbayevich,**

Tarix fanlari doktori, professor,


O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti

**Karimov Umrbek Davronbekovich,**

Ma'mun universiteti "Tarix" kafedrasida o'qituvchisi

E-mail.: karimovumrbek1@gmail.com

## O'ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR SIMBIOZI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515743>

### ANNOTATSIYA

Kishilik sivilizatsiyasining qadimgi markazlari shakllanishi va taraqqiyotida dehqonchilik madaniyati muhim rol o'ynagan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sharq tamaddunida ekin-tikinchilik madaniyati rivoji sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Asrlar davomida tajriba va usullar, nozik fenologik kuzatishlar asosida o'ziga xos dehqonchilik an'ana va marosimlari shakllangan. Mazkur an'analarda diniy-mifologik qarashlar va rituallar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqolada dehqonchilik bilan bog'liq diniy va milliy urf-odatlar, marosimlar ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** ekin-tikinchilik, kult, "is chiqarish", Xizr obrazi, magiya, "Avesta", "xudoyi".

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich,**

Doctor of Historical Sciences, Professor,

Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Karimov Umrbek Davronbekovich,**

Teacher at the Department of History at the Mamun University

E-mail.: karimovumrbek1@gmail.com

## SYMBIOSIS OF RELIGIOUS AND NATIONAL VALUES IN FARMING CEREMONIES OF THE UZBEK PEOPLE

### ABSTRACT

Agricultural culture played an important role in the formation and development of ancient centers of human civilization. It should be noted here that the development of agricultural culture in the Eastern civilization is based on irrigated agriculture. Over the centuries, specific agricultural traditions and rituals have been formed based on experience and methods, as well as careful phenological observations. Religious-mythological views and rituals are also important in these traditions. In this article, religious and national customs and rituals related to agriculture were scientifically analyzed.

**Keywords:** cultivation, cult, "is chiqarish", image of Khizr, magic, "Avesta", "xudoyi".



**Аширов Адхамжон Азимбаевич,**  
Доктор исторических наук, профессор,  
Институт истории Академии наук Узбекистана

**Каримов Умрбек Давронбекович,**  
Преподаватель кафедры «История» Университета Мамун  
E-mail.: karimovumrbek1@gmail.com

## СИМБИОЗ РЕЛИГИОЗНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЗЕМЛЯНЫХ ЦЕРЕМОНИЯХ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

### АННОТАЦИЯ

Земледельческая культура сыграла важную роль в становлении и развитии древних центров человеческой цивилизации. Здесь следует отметить, что развитие земледельческой культуры в восточной цивилизации базируется на орошаемом земледелии. На протяжении веков на основе опыта и методов, а также тщательных фенологических наблюдений формировались специфические земледельческие традиции и ритуалы. В этих традициях также важны религиозно-мифологические представления и обряды. В данной статье были научно проанализированы религиозные и национальные обычаи и ритуалы, связанные с земледелием.

**Ключевые слова:** культивирование, культ, «ис чикариш», образ Хизра, магия, «Авеста», «худайи».

### KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki, qadimgi Misr va Mesopotamiyada miloddan avvalgi VII, Hindiston, Eron va O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida esa miloddan avvalgi VI ming yillikdan boshlab kishilik jamiyati dastlab ekin-tikinlik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib, dastlabki chorvachilikni yo'lga qo'ygan, ya'ni odam tabiat in'omlarini o'zlashtirib qolmasdan, o'zi ham yaratuvchilik faoliyatini boshlagan[1].

Jamiyatdagi bu taraqqiyot O'zbekiston hududida ham o'ziga xos ko'rinishda yuz bergan. Ilk dehqonchilikning ibtidoiy shakli neolit davrida boshlangan. Biroq, sug'orma dehqonchilik ibtidosi miloddan avvalgi II ming yillik boshida qadimgi Baqtriya hududi (Surxondaryo viloyati)da kuzatiladi[2]. Arxeolog olimlar xulosalariga ko'ra, Farg'ona vodiysida bu jarayon miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalaridan boshlangan[3]. Umuman olganda, dehqonchilik bilan bog'liq urf-odatlar, marosimlar xalq tafakkurining g'aroyib mo'jizalaridan biridir. O'zbek xalqi qadimdan ularga amal qilish barobarida ularga taalluqli qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarini ham yaratgan.

### METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Farg'ona vodiysi Farg'ona tumani Mindon qishlog'i aholisi ham azaldan sug'orma ekin-tikinlik bilan shug'ullangan bo'lib, mazkur Oloy tog' etaklarida joylashgan keng tekislikda joylashgan. Asosiy suv manbalari Oloy tog'laridan oqib keladigan Shohimardonsoydan ko'plab irrigatsiya tarmoqlari yordamida sug'oriladi. Asosiy suv manbalari asosan tabiatga bog'liq bo'lib, har yili ham ob-havo qulay kelavermaydi. Shu sababli mahalliy dehqonlarning tabiat injiqliklari oldidagi ojizligi, sermashaqqat mehnat evaziga yetishtirilgan hosilning tabiiy ofatlar tufayli nobud bo'lishi va tabiatning ularga noma'lum ko'rinmas kuchlaridan qo'rquv muammolardan qutilish choralarini izlash hamda ekin-tikinlik bilan bog'liq qator marosimlar bajarilishiga asos bo'lgan. Mazkur marosimlar va urf-odatlar ildizi juda uzoq davrga borib taqalib, qadimgi animistik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan. Ekin-tikinlik bilan bog'liq ravishda o'tkazilgan urf-odatlar, marosimlar turli agrar kultlarning magik (sehrgarlik) kuchiga bo'lgan inonch asosida shakllangan. Shu boisdan ham ekin-tikinlik bilan bog'liq udum va marosimlarning ko'plari islomgacha bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig'inishga asoslangan. Sharqning dehqonchilik vohalari aholisi qadimiy turmush tarzida muhim o'rinni egallagan o'lib qayta tiriluvchi ilohlar kulti taniqli dinshunos va etnograf V.N. Basilov fikricha, aynan islom

ta'sirida unutilgan[4]. Biroq tarixiy-etnografik materiallar shundan dalolat beradiki, qadimgi agrar kultlar islom kirib kelishi bilan butkul yo'q bo'lib ketmagan, balki islomiy va milliy qadriyatlar bilan sinkretik (qorishgan) holda saqlanib qolgan va hatto davrlar osha XX asrgacha yetib kelgan.

### TADQIQOT NATIJALARI.

Mindonlik dehqonlar an'anaviy ekin-tikinchiilikda paxtachilik bilan birga bog'dorchilik, xususan, sifatli o'rik, uzum yetishtirish bilan ma'lum va mashhur bo'lgan. Bahorgi dala ishlari, mahalliy taqvimga ko'ra, yangi yil – quyoshning baliq (hut) burjidan qo'y (hamal) yulduzlar turkumiga o'tgan vaqtdan boshlangan[5]. Hozirgi amaldagi oy kalendari bo'yicha bu 21-martdan boshlanib 21-aprelgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi[6]. Boshqachasiga, dastlabki ekin-tikinchiilik yumushlari Navro'z tantanalari bilan bir paytda boshlangan.

Vodiyning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi mindonliklar faoliyatida Navro'z muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, aynan shu kunlarda ekin ekish, dala, bog' yumushlariga kirishilgan. Dehqonlar, bog'bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan eson-omon chiqib, bahorning iliq kunlarini intiqlik bilan kutib, katta ekin-tikinchiilik ishlariga jiddiy tayyorgarlik ko'rganlar. Shu boisdan ham o'rta asrlarda Buxoroda bu dehqonchilik bayrami "Navro'zi kishavarzon" – "dehqonlar bayrami" deb nomlangan[7]. Zahmatkash dehqonlar aynan ushbu kun dalaga qo'sh chiqarib yerga dastlabki urug'ni qadaganlar. Andijon o'zbeklarida bahorgi yer haydashni shanba kuni boshlash lozim deyilgan[8]. Xorazm o'zbeklari orasida esa hosil barakali bo'lishi uchun dushanba va chorshanba kunlari yer haydash ekin ekish xayrli amal hisoblangan. Boshqa kunlari yer haydash xosiyatsiz deb hisoblangani bois haftaning boshqa kunlari ushbu faoliyat taqiqlangan. Yer kunduz kuni bo'lsa shimolga, kechasi esa janubga qarab haydalgan[9].

XX asrda an'anaviy ekin-tikinchiilik mashg'uloti zamonaviy texnika taraqqiyoti bilan uyg'unlashgan davrda ham bahorgi ekin-tikinchiilik yumushlarini boshlashdan avval marosimiy qurbonlik qilish odati saqlanib qolgan va hatto bugunga qadar davom etib kelmoqda. Jumladan, o'zbek dehqonlari va bog'bonlari ekin-tikinchiilik yumushlarini boshlashdan avval Qovunchi ota ziyoratgohiga borib qo'y so'yib, qurbonlik qilishadi[10]. Namangan viloyati Chust tumani Dam qishlog'ida bahorgi dala ishlarini boshlashdan avval fermerlar uyushmasidagi traktorchilar mashina-traktor parkida to'planib Piri Dovudga bag'ishlab xo'roz so'yib qurbonlik qiladilar[11]. Bu, birinchidan, bahorgi dala yumushlarini boshlashdan avvalgi qurbonlik bo'lsa, ikkinchidan, traktorchilarning marosimiy qurbonlik qilish orqali temirchilik piri hisoblanuvchi Hazrati Dovudga bo'lgan ehtiromlari ramzidir.

Farg'ona vodiysining ko'plab hududlarida bahorgi ishlar oldidan masjid yoki mozorlar yaqinida "xudoyi" qilinadi. Kosonsoy tumani dehqonlarining Kosonsoy shahridagi mashhur Sadpirikomil mozorida, Chust tumanida esa Buvamozor ziyoratgohida xudoyi o'tkazish an'anasi hozirga qadar saqlanib qolgan. Mazkur marosim ko'pincha mart oyi boshlarida keksa dehqonlar, oqsoqollar boshchiligida o'tkaziladi. Avvallari har bir xonadondan bug'doy va oziq-ovqat mahsulotlari to'plangan bo'lsa, keyingi vaqtlarda ma'lum miqdorda mablag' ham qo'shib yig'ilmoqda. To'plangan pulga bozordan buzoq yoki qo'y sotib olinib, qurbonlik uchun so'yilgan va go'shtidan halim pishirilgan[12]. Taom tayyorlangunga qadar qishloq erkaklari tomonidan uch-to'rt guruhga bo'linib, qishloq ariqlari tozalangan va bahorgi shudgor oldidan "is chiqarish" marosimi o'tkazilgan. Har bir oilada ayollar bo'g'irsoq, cho'zma ("is") pishirganlar. Qozondagi moy yaxshilab qizitilgandan so'ng unga xamir tashlangan. Go'yo shu moy qizishidan marhumlarning ruhlari shod bo'lib, o'z qarindosh-urug'lariga omad tilar ekanlar.

Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida dehqonlari o'z ekin maydonlari chetlariga qurbaqalarni tutib kelib osib qo'yishgan. Ular qurbaqa yomg'ir chaqiradi, deb ishonishgan[13]. Hozirda ham vodiya "qurbaqani o'ldirgan odamning to'yida yog'ir yog'adi", degan tushuncha saqlanib qolgan. Biz bu o'rinda qurbaqaning ma'lum ma'noda, namgarchilik homiysi sifatida namoyon bo'lishini ko'ramiz. Turonda qurbaqaning namgarchilik timsoli bo'lganligini mashhur arxeolog va san'atshunos olim L.I. Rempel ham tasdiqlab, "O'rta Osiyo xalqlari san'atida qurbaqa obrazidan namgarchilik va yomg'ir ifodasi, baxt va omad timsoli, bamisoli tumor sifatida foydalanilgan", – deb yozadi[14]. Darhaqiqat, qadimda qurbaqa obrazi ma'lum ma'noda yomg'ir, namgarchilik ramzi

hisoblangan bo‘lib, dunyo xalqlarining ko‘pchiligida uning yog‘ingarchilik bilan bog‘liqligi to‘g‘risida turli talqinlar uchraydi[15].

Farg‘ona tumani Kaptarxona qishlog‘ida avvallari dalaga dastlabki qo‘sh chiqarilayotganda dehqonlar yangi liboslarini kiyib, ushbu kunni to‘kin-sochinlik va shodu xurramlikda o‘tkazishga harakat qilganlar[16]. Udumga binoan birinchi qo‘shni qishloqning yoshi ulug‘, obro‘li kishilaridan biri boshlab bergan. Tadqiqotchilarning ta‘kidlashlaricha, ushbu kunning bunday tantana bilan o‘tkazilishi birinchi kun magiyasiga aloqador bo‘lgan[17]. Birinchi kun magiyasiga ko‘ra, biror – bir faoliyat yoki yilning boshlanishi qanday bo‘lsa, o‘sha faoliyat yil nihoyasiga qadar ana shunday ruhda davom etadi, degan tasavvur hukmronlik qiladi[18]. Qolaversa, keksa yoshli, bola-chaqasi, nevara-chevarasi ko‘p piru badavlat, ishi doim oldinga ketadigan tadbirkor, obro‘li kishining birinchi qo‘shni haydab berish odati uning xo‘jalik yuritishdagi boy tajribasi bilangina bog‘liq bo‘lmagan. Bu o‘rinda uzoq umr ko‘rgan, serfarzand, badavlat kishining o‘ziga xos ramziy fazilatlariga zaminga, yetishtiriladigan hosilga o‘tishiga qaratilgan o‘ziga xos magik qonuniyat aynan keksa kishining dastlabki qo‘shni boshlab berishiga sabab bo‘lgan. Dehqonlarning birinchi marta yer haydash uchun qo‘sh va ho‘kizlarni ham maxsus tayyorlash odati ma‘lum ma‘noda qadimgi agrar kultlar bilan bog‘liq. O‘rta Osiyoda qadimda ho‘kiz serpushtlik ramzi hisoblangan va shu bois yerni omoch bilan haydash orqali uning g‘ayritabiiy xususiyati yerga va yetishtiriladigan hosilga o‘tishi mumkin[19], – degan arxaik qarash asos bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Farg‘ona vodiysi dehqonlari tasavvurida Hazrati Xizr kishilarga baxt, baraka ulashuvchi pir hisoblanganligi bois vodiya uning nomi bilan bog‘liq ko‘plab rivoyat va qadamjolar uchraydi. Dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi Xo‘jai Xizr ziyoratgohi tuprog‘idan “dehqonchiligimizga qut-baraka bersin”, degan niyatda olib ketganlar. Qo‘qon shahri va uning atrofidagi qishloqlarda erta bahorda dehqonchilik bilan bog‘liq juda qiziq urf-odat bajariladi. Jumladan, Qo‘qon shahri Urganjibog‘ mahallasida dala yumushlari boshlanishidan avval dehqonlar o‘zlarining oilalari bilan Rishtondagi Xizr buvam mozorini ziyorat qilishga boradilar. Ziyoratga kelganlar o‘zlari bilan ozgina don (bug‘doy yoki arpa), xonadon suprasining xamirturushi bilan arqon, qo‘rg‘oshin, to‘g‘nog‘ich, isiriq, pul, suv oladilar va ushbu narsalarni ma‘lum muddatga mozordagi maqbara oldiga qo‘yib qo‘yadilar. Ular kelayotgan dehqonchilik yilida yerimiz qo‘yilgan xamirturushdek yil davomida ko‘pchib tursin, bu yilda don-dunimiz barakali bo‘lsin, supramiz doimo unga to‘lsin, chorvamiz ko‘paysin va oilamiz misoli qo‘rg‘oshinday mustahkam bo‘lishida Hazrati Xizr alayhissalom qo‘llab-quvvatlasin, degan niyatda ushbu ashyolarni ziyoratgohga olib kelganlar[20]. Biz bunda, avvalo, Hazrating Xizrni baraka ulashuvchilik xususiyati va unga bo‘lgan ishonchning guvohi bo‘lamiz. Shu sababdan ham V.V. Bartold, Y.E. Bertels va M.I. Afzalov Xizr obrazi islom diniga qadar yaratilgan, u mehnat ahli ijodiy izlanishining uzoq davr mobaynidagi mahsuli bo‘lgan, degan fikrni bayon etganlar[21]. Demak, Xizr obrazining islom diniga aloqasi yo‘q, u islom shakllanishidan ancha oldin vujudga kelgan[22]. Xizr obrazining genetik asoslari, ayniqsa, dehqonchilik asoslari va hosildorlik kultlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Qolaversa, biz yuqoridagi misollardan muloqotli magiyani, ya‘ni ushbu ashyolar orqali kelgusi yilda yetishtiriladigan hosilning barakali bo‘lishiga erishishning o‘ziga xos afsungarlik usullarini ko‘rishimiz mumkin.

Farg‘ona viloyati So‘x tumanida yashovchi tojiklarda yomg‘ir chaqirishga karatilgan maxsus marosim “tarishkunok” deb atalgan. Unga ko‘ra uzoq vaqt yog‘ingarchilik bo‘lmasa, qishloq erkaklari yarim yalang‘och holda ko‘chaga chiqqanlar va bir birlarining ustidan suv quyganlar hamda biror kishini (ko‘proq qishloq imomini yoki mullani) ariqqa tashlab yuborganlar. Shu kunlari qishloq erkaklari o‘zlari xohlagan xonadonga mehmonga kirishgan. Xonadonlarda esa ular faqat shu marosimdagina pishiriladigan “kashki chavari” deb nomlangan chalpak bilan mehmon qilingan[23].

Biz o‘zbek xalqi an‘anaviy turmush tarzi bilan bog‘liq qarashlar va marosimlarni o‘rganar ekanmiz, yer, don va nonga bo‘lgan o‘ziga xos hurmat-ehtiroمنىing turli-tuman udumlar va marosimlarda hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari orasidagi xalqona qarashga ko‘ra, bug‘doy, olma, qovun, anjir va rayhon dastlab jannatda o‘sgan[24]. Shu bois ushbu o‘simliklar va mevalar doimo e‘zozlab

kelingan, ayniqsa, xalq orasida yerga bug‘doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va shu sababga ko‘ra bug‘doy ekilgan maydonlarni oyoqosti qilish, uni bosish gunoh hisoblanadi.

“Avesta”da yozilishicha, “kimda-kim bug‘doy eksa, u Asha (haqiqat)ni ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko‘kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru niyoz va o‘n minglab qurbonliklar bilan quvvatlantirgandek qudratli qiladi. Qachonki egatlarda urug‘ yetilsa, devlar o‘rinlaridan qo‘padilar. Qachonki bug‘doy gurkirab ko‘karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug‘doy un bo‘lsa, devlar nola che-kadilar. Qachonki bug‘doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo‘ladilar. Qay bir xonadonda bug‘doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug‘doy bosh chiqarsa, u xonadondan devlar uzoqlashadilar. Qay bir xonadonda bug‘doy ombori bo‘lsa, go‘yo qizdirilgan temir devlar bo‘ynini chirmab tashlaydi”[25]. Ko‘rinadiki, «Avesta» paydo bo‘lgan davrda g‘alla ekish, don yetishtirish, umuman, dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan va ularning ayrim ko‘rinishlari XX asrgacha yetib kelgan.

O‘zbek dehqonlari dehqonchilikda o‘ziga xos boy tajriba sohiblari bo‘lishlari bilan birga, dehqonchilik va bog‘dorchilik rivoji bilan bog‘liq ko‘plab afsungarlik udumlarini ham amalga oshirganlar. Jumladan, Namangan viloyati Kosonsoy tumani Chindovul qishlog‘i o‘zbeklarida mevali daraxt ekish odati keng tarqalgan. O‘z navbatida biror-bir mevali daraxt qurib qolgudek bo‘lsa, u darrov kesib tashlangan. Chunki xalqona tasavvurga ko‘ra, qurigan daraxt ushbu xonadonda navbatdagi o‘lim bo‘lishiga turtki berar ekan[26]. O‘z o‘rnida ta‘kidlab o‘tish joizki, mevali daraxt shoxlari, yil fasllari va suv ham ikki asos – erkak va ayolga bo‘lingan. Keksa dehqonlar mevali daraxtlar shoxlarini butash jarayonida doimo ayol shoxlarini qoldirib, erkagini qirqib tashlaganlar. Chunki ayol shoxlar serhosil meva beruvchilar hisoblangan. Tojik elshunosi I. Muhiddinovning yozishicha, suvning erkak va ayolga ajratilishida daraxt shoxlariga nisbatan teskari tasavvur bo‘lgan bo‘lib, erkak suv oqqan ariq bo‘ylaridagi o‘t-o‘lanlar zich va baland, ayol suv oqan ariqlar bo‘ylari esa o‘tsiz bo‘lgan yoki juda kam o‘t o‘sgan. Erkak fasllarga kuz va qish kirgan bo‘lsa ayol faslga bahor va yoz taalluqli bo‘lgan. Bunday bo‘linish qadimgi agrar kultlar, aniqrog‘i, hosildorlik kulti bilan bog‘liq bo‘lgan[27].

Farg‘ona viloyati Quva tumani, Namangan viloyati Chust tumani bog‘bonlari tomonidan yetishtirilgan anorlar dong‘i qadimdan nafaqat respublikamiz, balki undan tashqariga ham tarqalgan. Zukko dehqonlar anor yetishtirishda yuksak darajada rivojlangan agrotexnikani qo‘llaganlar. Ular bu borada qator magik urf-odatlariga ham amal qilganlar.

Anor eng qadimdan o‘ziga xos ilohiy ne‘mat tarzida qadrlangan. Zardushtiylik dinida anor Anaxitaning atributi hisoblangan. Vodiy dehqonlari anorni ko‘pincha o‘zgalar ko‘zi tushmaydigan joyga, bog‘ning chekkaroq yeriga ekanlar. Chunki ular tasavvurida ushbu meva magik xususiyatga ega bo‘lib, gullaganda yot kishining nigohiga tushsa urchimay qolar ekan. Bundan tashqari, anor qizil bo‘lib gullaganda qizil kiyim kiygan kishini yoqtirmaydi, deyiladi. Shu boisdan ham bu daraxt odamlar birmuncha kam boradigan yerga o‘tqazilgan. Biz bu yerda ranglar bilan bog‘liq magik tasavvurni, aniqrog‘i, qizil rangning magik ta‘sirini ko‘rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, qadimgi animistik tasavvurlarga ko‘ra, qizil rang o‘ziga xos magik kuchga ega deb hisoblangan. Folklorshunos olim B. Sarimsoqovning yozishicha, qizil rangli atirgul kuchli magik qudratga ega bo‘lgan va u hamma vaqt yovuz ruhlarni, jinlarni o‘ziga chaqirib olib, atrofdagi jonli narsalarga, ayniqsa insonlarga zarar yetkazar ekan[28].

## **XULOSALAR.**

Xulosa tarzida aytadigan bo‘lsak, o‘zbek xalqining ekin-tikinlilik mashg‘uloti bilan bog‘liq marosimlar va urf-odatlarida ko‘plab arxaik ko‘rinishlar va magik xatti-harakatlar saqlanib qolgan. Shuningdek, dehqonchilik urf-odatlarida o‘lib qayta tiriluvchi tabiat kulti izlari, garchi qoldiqiy ko‘rinish shaklida bo‘lsa-da, yetib kelganini va aksariyat hollarda mahalliy an‘analar bilan o‘zaro qorishgan holatda amalga oshirilishini kuzatdik.



## Iqtiboslar / References / Сноски

- [1] Анорбоев А. Ўзбекистонда илк суғорма деҳқончиликнинг шаклланиши ва антропоген ландшафтинг ташкил топиши // Ўзбекистон ҳудудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар. – Т., 2006. – Б. 13.
- [2] Qarang: Аскарлов А. Сапалитепа.–“Фан”, 1973; Аскарлов А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан.–Т.: “Фан”,1983; Аскарлов А. Энг қадимги шаҳар.–Т.: “Маънавият”, 2001.
- [3] Анорбоев А. Ўзбекистонда илк давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар // O‘zbekiston tarixi. – 2004. – № 4. – Б. 10-11.
- [4] Басилов В.Н. Божество аграрных культов // Культ святых в исламе. – М., 1970. – С. 10.
- [5] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani Mindon qishlog‘i. 2012-yil.
- [6] Кисляков Н.А. Старинные приёмы земледельческой техники и обряды, связанные с земледелием, у таджиков бассейна реки Хингоу // СЭ. – 1947. – № 1. – С. 21; Нарзикулов А. Деҳқон тақвими. – Т.: Мехнат, 1991. –Б. 7-11.
- [7] Qarang: Наршахий. Бухоро тарихи. – Т., 1966. – Б. 24.
- [8] Dala yozuvlari. Andijon viloyati Buloqboshi tumani 2004-yil.
- [9] Leonid Pavlovic Potapov Materialien zur Kulturgeschichte der Uzbeken ... – P. 74.
- [10] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Mindon qishog‘i. 2012-yil.
- [11] Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Chust tumani, Dam qishlog‘i. 2006-yil.
- [12] Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа ... – С. 179-180; Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Т.; Ўқитувчи, 2003. – Б. 100-101.
- [13] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani Каптархона qishlog‘i. 2014-yil.
- [14] Ремпель Л.И. Цепь времени вековые образы и и бродячие сюжеты ... – С. 37.
- [15] Евсюков В.В. Мифология китайского неолита. – Новосибирск., 1989. – С. 94-95; Халилов Х.М. Историческая общность и национальное своеобразие обрядовой поэзии народов Дагестана и Северного Кавказа // Дагестанский фольклор во взаимосвязи с иноэтническим фольклором. – Махачкала, 1985. – С. 19; Календарные обычаи и обряды народов восточной Азии. Годовой цикл. – М., 1988. С. 276.
- [16] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Каптархона qishlog‘i. 2003-yil.
- [17] Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклари. –Т., 1986. – Б. 52.
- [18] Birinchi kun magiyasi va birinchi savdoga bo‘lgan magik inonch borasida batafsilroq qarang: Покровская Р.Я. Земледельческая обрядность ... – С. 71.
- [19] Штернберг Л.Я. Первобытная религия в свете этнографии ... С. 431.
- [20] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Urganjibog‘ mahallasi. 2004-yil.
- [21] Qarang: Бартольд В. Ислам. Ч. 2. – Петроград, 1918. – С. 59; Низами. Искандарнамэ. Т. I. – Баку, 1940. – С. 370; Афзалов М. Ўзбек халқ эртақлари ҳақида. – Т., 1964. – Б. 49.
- [22] Нурмонов Ф. Ўзбек халқ эртақларида Хизр образининг эпик талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – № 4. – Б. 62.
- [23] Джахонов У. Земледелие таджиков долины Соха. – Душанбе, 1989. – С. 114.
- [24] Bunga o‘xshash qarash tojiklar orasida ham mavjud. Qarang: Мухиддинов И. Земледелие памирских таджиков и Ишкашима в XIX – начале XX в (Историко-этнографический очерк). – М., 1975. – С. 91; Джаханов У. Земледелие у таджиков долины Соха в конце XIX – начале XX в. Душанбе, 1989. – С. 116.
- [25] Авесто / А. Маҳкам таржимаси ... – Б. 115.
- [26] Bunday qarash Janubiy Sibir turkiylarida ham uchraydi. Qarang: Традиционное мировоззрение тюрков Южной Сибири: Знак и ритуал ... – С. 48.
- [27] Мухиддинов И. Земледелие памирских таджиков и Ишкашима ... – С. 101.
- [28] Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклоридан очерклар. – Т., 1988. – Б. 148.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000